



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)

Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs
magistranti*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola adabiyot darslarini epistolyar namunalardan foydalanib tashkil etish va adiblar hayoti va ijodini maktublariga bog'lab o'qitish usullari. Oybekning ijodiy faoliyati bilan birga, uning shaxsiyatini o'rganishda epistolyar janrdan foydalanish usullari, maktublarining tahlili, uning turlari haqida ma'lumot beriladi. Adabiyot darslarida maktub janri orqali o'quvchilarda yozuvchining ijodiga qiziqishini orttirish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Kalit so'zlar. Epistolyar, maktub, xat, shaxsiyat, tarbiya, estetik tarbiya, ishq-muhabbat.

ABSTRACT

This article is about organizing literature lessons using epistolary examples and teaching by linking the life and work of writers to their letters. Along with Oybek's creative activity, information is provided about the methods of using the epistolary genre in studying his personality, analysis of his letters, and its types. The main goal of literature lessons is to increase students' interest in the writer's work through the letter genre.

Keywords. Epistolary, letter, letter, personality, upbringing, aesthetic upbringing, love.

Barcha davrlarda dunyo xalqlarini qiziqtirib kelgan epistolyar namunalar ma'lum darajada jamiyat manfaatlarini ifodalashi hamda muayyan soha taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Umumiy o'rta ta'lif tizimida adabiyot darslarini oqilona tashkil etish, adiblar hayoti va ijodini o'rganilishida epistolyar namunalardan foydalanish yozuvchi shaxsiyati, turli janrdagi namunalarning o'ziga xos xususiyatlari, xarakterlar tizimi, matn bilan munosabatiga :r masalalarni tahlil qilishda muhim o'rinn tutadi.

Olim D. Quronov shunday ta'riflaydi: "Adabiy-badiiy asar til vositalaridan tarkib topuvchi matn ekan, demak, u ham mohiyat e'tibori bilan nutq hodisasiidir. Zero, adabiy-badiiy asar muloqot asosida dunyoga keladi, ya'ni, ijod jarayoni mohiyatan muloqotdir. Tasavvur qilingki, siz kimgadir maktub yozyapsiz. Siz maktubingiz kimga yozilayotganini, uning qanday odamligi, u bilan qay yo'sinda muomala qilish kerakligini, ... har vaqt nazarda tutasiz, boshqacha aytsak, maktubni yozish davomida adresat har vaqt xayolingizda turadi: siz yetkazmoqchi bo'lgan xabarni u tushuna oladigan, unga ta'sir qiladigan tarzda yozishga intilasiz. Demak, aslida xat yozish jarayonida siz adresat bilan muloqotga kirishasiz —tasavvuringizdag'i suhbatdosh bilan "xayolan gaplashasiz" va ayni shu suhbat (muloqot jarayoni) qog'ozda muhrланади. Demak, ijodkor va o'quvchi orasidagi badiiy muloqotni amalgaloshirishga xizmat qilgani uchun ham badiiy asar badiiy muloqot vositasi deb tushuniladi. Badiiyat hodisasi faqat ikki ong tutashgan nuqtadagina mavjud (M.Baxtin) bo'ladi. Ya'ni, badiiy asar o'qish (hamda ijod) jarayonidagina badiiyat hodisasiga aylanadi, o'qilmagan paytda esa u bir jism qog'oz, muqova, rangdan iborat narsa xolos".[1]



Adabiyot darslarini epistolyar namunalardan foydalanib tashkil etish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, badiiy tahlil malakalarini egallash, o'z bilim va qobiliyatlarini baholay bilishida o'ziga xoslik kasb etadi. O'quvchilarning epistolyar janr haqida, u qanday janrligi, undan adabiyot darslarida qaysi jihatlariga e'tibor qaratish kerakligi to'g'risida ko'plab muammolar yuzaga kelishi mumkin. Kuzatishlar natijasida o'quvchilarni epistolyarlarni tushunishga bo'lgan qarashlari cheklangan. Ba'zi o'quvchilar epistolyarni tushunish va talqin qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, chunki adabiyotda ma'lum bir adib hayoti va ijodi yoki uning asarini anglash uchun turli xil maktub turlariga oid bilim va tafakkur zarur. Bu holatda, o'qituvchi o'quvchilarning maktublarga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning epistolyarni chuqurroq o'rGANISHGA undash uchun motivatsiya yaratish kerak. Maktub shaklidagi adabiy janr qadimda yunon va rim adabiyotlarida uchraydi. Bunga misol tariqasida yunon faylasuflarining yozishmalarini kiritishimiz mumkin. Shundan odamlar orasida epistolyar aloqadan piblitsistik yo'sinda chiroyli yozuvda yozishmalar olib borilgan. San'at darajasigacha ko'tarilgan. Yozma nutq, asosan, epistolyar janrning obyekti hisoblangan.[4]

Umumta'lim tizimida axloqiy-estetik tarbiya, badiiy didni shakllantirish muammosi, adabiyotni falsafa, tarix, pedagogika kabi ijtimoiy yo'nalishdagi fanlar bilan aloqadorlikda o'rGANISH taqozo etadi. Shuningdek biror yozuvchining ijodiga kirishishdan oldin u yaratgan asarlarning yozilish tarixi, ijodkor shaxsiyati haqida so'z boradi. Xususan, umumiyo rta ta'lim maktablari 5-11-sinf adabiyot darslarida Alisher Navoiy, Furqat, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Oybek, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov va boshqa adiblar ijodini o'rGANISHDA ularning o'zaro yozishmalaridan foydalanish o'quvchilarda iliq taassurot qoldiradi.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi Qo'qon adabiy muhiti vakillari Muqimiyy, Furqat va Zavqiy o'rtasidagi bitiklarni shaxsiy mazmundagi maktublar sirasiga kiritish mumkin. Furqatning yaqin do'stlariga Yorkent, Istanbuldalik chog'ida yozgan she'riy maktublari mazmuni ijodining yetakchi g'oyasi - ona yurtidan judolik alamlariga vobastaligi tasodifiy hol emas, albatta. Ular orasida, ayniqsa, Muqimiyya Bombeidan yo'llangan xat Hind o'lkasi tabiat, shahar aholisining turmush darajasi atroflicha tasvirlangani bilan xarakterlidir.

Biz o'rGANMOQCHI bo'lgan adibimiz yuksak salohiyat egasi, qalbi daryo ijodkor Oybek va ayoli Zarifa Saidnosirova o'rtasidagi yozilgan maktublarini tahlilga tortamiz. Oybek domla shunday ajoyib yozuvchi ediki, qalbi :mo adabiyotga san' atga oshno inson bo'lgan. Har vaqt adabiyotga umrini baxshida etgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Yozuvchi shunday beg'ubor, samimiy va sof muhabbat kishisi edi. Uning ayoliga turmush qurmasliklaridan oldin yozgan maktubida shunday she'riy maktub bitgan edi:

Savdoning ipagi qalbim o'radi,
Ruhimda bulbullar dard-la yig'ladi,
Sevgilim, xayoling mangu bog'ladi,
Shu o'ksiz ko'nglima nega boqmading?..



Xayollar ufqida go'zal yulduzim,
Ko'rmasam dard sochar qonli ko'zlarim.
Endi boq, menga, ey, otashin she'rim,
Shu o'ksiz ruhimga nega kulmading?..[5]

Yozuvchi shunday mahorat, qalb otashi ila ushbu she'rni yozarkan, qalbida muhabbat qanday kechganini yuqoridagi satrlarda namoyon bo'ladi. Bu satrlar yozilgan vaqtida Oybek va Zarifa qalbida ilk muhabbat uchqunlagan paytlar edi. Ularning sevgisi samimiyligini boshqa maktublarida ham uchratamiz. Zarifa juda uyatchan edi. Shu sabablimi Oybekning ilk maktublariga pinhon javob yozar edi. U Oybekning ilk she'riy maktubiga yozgan javob xatida shunday satrlar bitilgan edi:

Savdoning ipagi qalbing o'rasha,
Ruhingda bulbullar dard-la yig'lasa,
Aytma hech menga, ko'nglim sezmasin,
Savdolarga sira oshno bo'lmasin.
Xayollar ufqiga boquvchi o'rtoq,
So'ylama xayoldan, men undan qo'rkoq,
Sen kabi ko'zlarim dardlar sochmasin,[5]

Qalbimda savdolar chechak ochmasin. Bu satrlar yozilgan paytda ikki yosh judayam sodda va beg'ubor ekanligini yuqoridagi she'riy satrlaridan ko'rishimiz mumkin. Garchand ko'nglida muhabbat uchquni bo'lsada uni o'zbek qizlaridagi ibo hayo, or nomus kabi masalalarga jiddiy qaragani judayam o'rini aks etgan. Bu maktublarda tashqari yana boshqa maktublarida bor. Yana bir maktubidan ba'zi jumlalarni keltirar ekanmiz, uning ilmiga juda chanqoq ekanligi she'rlar yozganligi , uni gazeta jurnallarda chop ettirganligi aks etgan:

"Zarifa"

Nemis shoiri shoirlarni qadahga o'xshatgan ekan. Sen "to'g'rimi?" deb so'raysan. Bilmayman, to'g'rimi, yanglishmi? Zotan , dunyoda safsata va bo'sh so'z ko'p. Bo'sh qadahlarga dudoqlarimni surtishni istamayman. Shu kunlarda anchagina parchalar yozdim. Bir qanchasini "Qizil O'bekiston" va "Maorif va o'qituvchi"ga yubordim. Chiqqandir yoki chiqib qolar. Shu she'rlarim to'g'risida o'z fikringni yoz. Tuzukmi ?

O'zing qalaysan, nimalar o'ylab, nima xayollardasan? Toshkentda qanday gaplar bor? -mana bu narsalar haqida nega so'z ochmaysan?

Sharifa uy qizi bo'lib qolibdir. Rostmi? Uning qo'shiqchi ko'ngli bunga ko'nadimi? Aytib qo'y, ko'p dutorga berilmasin, chunki musiqa ochiq fikrlarni go'zal tumanlar ila qoplاب qo'yadi. Kitob o'qisin, kitob!

Zarifa! Tez -tez xat yozib tur. Seni juda sog'indim. Bahorda kelmoqchi eding. Nima bo'ldi? Bir kela qolsang-chi? Nazarimda, har kun bir asr kabi cho'ziladi. Senga qovushmoq kunlari qachon kelar ekan?

Ukalarimga salom!
Ko'zlariningdan o'pib, qalbiy salomlar ila:

Oybek[5]



Yuqoridagi satrlar orqali Oybekning so'zga ustamoni, har bir so'zlarni qo'llashda e'tiborli ekanligi. Har bir jihatlar diqqat qaratishligiga guvoh bo'lamic. Uning ham nasrda, ham nazmda haqiqiy ijodkor ekanligi har bir adabiyotshunosni, tadqiqotchilarni, shu jumladan o'qirmanni ham hayratga soladi. Ushbu xatdan o'ziga xos jihatlar borligi: mehribon, hissiyotga biroz bo'lsa ham beriluvchan, aql va yurakni birdek tutib ish yuritishini ham payqash mumkin. Uning bir kela qolsang-chi, bir kun bir asrdek cho'ziladi kabi qalb bitiklarida Zarifaga nisbatan kuchli sevgi taftini sezish mumkin. Yana shuni aytish joizki, hayotidagi har bir insonlarga e'tiborli ekanligini Zarifaning ham oila a'zolarini o'z oila a'zosidak ko'rishini ham qayg'urganligini nafaqat bu maktubi orqali boshqa maktublarida ham uchratishimiz mumkin. Masalan quyidagi maktubiga e'tibor qaratmoqchimiz.

“Zarifa!

Mana shu to'rtinchchi yoki beshinchchi maktubim. Sendan bir marotaba ham xat olmadim. Har kuni xat yo telegramma kutaman . 5 sentyabrda yozgan xatimda adresimni ko'rsatgan edim-ku! Omonning sog'lig'i haqida menga telegramma bersa kerak, deb umid qilar edim. Bilmadim, xatlarim, ehtimol, Taxtapulga borib yetmas, pochtal'on qo'lida yo'qolib ketayotgandir. Bu dafa xatni Zulfiyaga, Toshgramga yozdim. Oltinchida Sharifaga ham xat yozib yuborgandim. Ammo javob kelgani yo'q. Yozib turishga va'da qilgan edi... Sizlarga yozdimi ?

Zarifa, rost gapir, Omon sog'mi? Sharifaning ovoz tonidan ko'nglim nimalarnidir sezgandi. Suning uchun ko'p qo'rqamen.

Xatda yana boshqa masalarga ham to'xtalib o'tgan. Xatda Oybekning oilaparvar ekanligi, :mo uzoqda bo'lsa ham, ulardan xabardor bo'lib turishga harakat qilishi, uning maktublari orqali ochib berilganligini ko'rishimiz mumkin.

“Zarifa!

Men ketyapman. Har kun stansiyada istagan narsangni olish mumkin: sut, qatiq, tovuq, non, smetana va boshqalar.

Orenburgdan boshlab havo salqin. Bilmasam, Moskovda qanday ekan? Toshkentdan chiqqan kundan boshlab Omonni sog'inaman. Har vaqt, u ko'zimning oldida. Doktorga, albatta, ko'rsat!

Sharifa yo'ga chiqdimi? Moskovda kutib olaman. Men uchun Omonning ko'zlaridan o'pib qo'y.

Qolganlarga salom.

Oybek. 30. VII. 1932.

Samarqanddan o'tdik".[5]

Oybekning bu maktubida uni oilasiga jonkuyar inson, mehribon ota ekanligi, :mo oilasiga qayg'urishi, har bir jihatlarga e'tiborliligi, tartibli inson ekanligini, shaxsiyatlari ochib berilganini ko'rishimiz mumkin. Maktublar kimga, nima sababdan yozilishiga turlichcha aks etadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Munshaot” asari juda ko'p tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan. Masalan, A.Hayitmetov, S.G'aniyeva, B.Sarimsoqov, Sh.Sirojiddinov, Q.Ergashev, Y.Tursunov va boshqalar tarafidan



o'r ganilgan. "Munshaot" asari tarkibiga kirgan maktublarni birinchi bo'lib adabiyotshunos olma S. G'aniyeva tomonidan quyidagicha tasnif qilingan edi:

1. davlat va siyosatga aloqador maktublar;
2. turli shaxslarga ularning lavozimlari va ishlari xususida yozilgan xatlar;
3. badiiy ijod borasidagi yozishmalar;
4. tabrik va taziyanomalar;
5. shaxsiy kechinmalarni ifodalovchi maktublar.

Keyinchalik esa Y.Tursunov o'zining "Munshaot" – Alisher navoiy hayoti va faoliyatini o'r ganishda tarixiy- badiiy manba sifatida" nomli nomzodlik ishida ikkinchi marta tasnif qiladi. U S.G'aniyeva tasnifini asos qilib olib, unga quyidagi qo'shimchalarni kiritgan:

6. nasihat xarakteridagi xatlar;
7. tanbeh ifoda qilingan maktublar;
8. minnatdorlik izhori sifatida yozilgan xatlar;
9. qisqa maktublar;

Bundan tashqari Y. Tursunov maktublarni uslubiy xususiyatlari ko'ra ham tasnif qilib, ularni 4 guruhga ajratadi:

1. an'anaviy uslubda yozilgan maktublar;
2. oddiy, sodda uslubda yozilgan maktublar;
3. umumi xarakteridagi birinchi va ikkinchi guruh maktublarga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etgan maktublar;
4. qisqa maktublar.

Demak biz o'rgangan tahlil qilgan adibimiz Oybekning maktublari uslubiy jihatdan oddiy, sodda uslubda, tasnif qilinganda shaxsiy kechinmalarni ifodalovchi, nasihat xarakteridagi va tanbeh ifoda qilingan maktublar sirasiga kiritish mumkin.

Adabiyot darslarida maktublaridan foydalanish, o'quvchilarda insoniy fazilatlar, oilada va jamiyatda qanday inson bo'lish kerakligini o'rgatishda va uning hayoti va ijodini o'r ganishda yaxshi samara beradi. Masalan, maktab o'quvchilari adabiyot darslarida epistolyar namunalardan qanday foydalansa bo'ladi yoki qaysi metod orqali bu janrni o'quvchilar tezroq tushunib qo'llashi borasida ta'limda muammoli savol tug'ilishi mumkin. I. G'ofurov ta'biri bilan aytganda, "Maktub, avvalo, fikrlashga, atrofga razm solib qarashga, yaxshi-yomonni tanishga, har narsaga mustaqil baho berishga, o'z fikriga ega bo'lishga, kuzatuvchanlikka o'rgatadi. Shu bilan birga maktub yozish inson ijtimoiy faolligining eng yorqin ko'rinishlaridan biridir". Demak, maktub yozish insonning ham ma'naviy saviyasini yuksaltirishga xizmat qiladi hamda madaniyat darajasini o'zida namoyon qiladi. Shu jihatlarni ta'limda o'qituvchi o'quvchilar tushuntira olishi muhim bo'ladi.[2]

Shunday ekan pochta metodi orqali o'quvchilarga dars tashkillaymiz. Bunda sinf o'quvchilariga birinchi darsda epistolyar janri haqida ma'lumot beriladi. Keyingi darsimizda sinfni uch guruhga bo'linib epistolyar janri haqida savollar yozishadi va qarama qarshi guruhlarga pochta qutisi orqali berishadi. O'quvchilar kimga qanday savol maktubi tushgan bo'lsa, javobini xat shaklida



yozib, o'zi ham qo'shimcha topshiriq yozib, pochta qutisi orqali qayta savol egasiga jo'natiladi. Uyga topshiriq sifatida masalan, adiblar maktublarini internet manbalari yoki kitoblar orqali topib kelish, tahlil qilish va o'zlari ham o'sha ijodkoriga maktub yozish vazifa shaklida beriladi. Ushbu metod orqali epistolyar janrni o'quvchilar qanchalik darajada o'zlashtirganliklari tekshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – 83-b
2. .I. G'ofurov. Dil erkinligi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – 78-b.
3. M.Qo'chqorova. Maktublar – qalb ko'zgusi // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2009. – № 11. – B. ...
4. R.Ibrohimova. Epistolyar janr eskirdimi?/O'zbek adabiyoti va san'ati. 2007,10-son
5. .Z.Saidnosirova. «Ойбегим менинг». «Янги аср авлоди», Ташкент –2022 йил,

6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINF DAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR

Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
 O'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti*
dlafruz444@gmail.com

Annotatsiya

Umumiy o'rta ta'lif maktablari adabiyot fani o'quv mashg'ulotlarining muhim mavzularidan biri sinfdan tashqari o'qish masalasi hisoblanadi. Bu mavzuga tegishli darslarning mazmunli hamda samarali o'tishi adabiyot o'qituvchisining mahoratiga bog'liq. Ushbu maqolada 6-sinf adabiyot darslarida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini o'tkazish yuzasidan tavsiyalar berilgan. Shuningdek, sinfdan tashqari o'qish uchun badiiy asarlar nomlari keltirilgan, ularning qisqacha mazmuni berilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, sinfdan tashqari o'qish, o'quv mashg'uloti, "Mutolaa", badiiy asar, kitobxon, kutubxona

Аннотация

Одной из важных тем на уроках литературы в общеобразовательных школах является тема внеклассного чтения. Содержательная и эффективная подача уроков по этой теме зависит от мастерства учителя литературы. В статье даются рекомендации по проведению внеклассных занятий по чтению на уроках литературы в 6-м классе. Также перечислены названия произведений искусства для внеклассного чтения и их краткое содержание.

Ключевые слова: литература, внеклассное чтение, образовательная деятельность, «Мутолаа», художественное произведение, читатель, библиотека.

Annotation

One of the important topics in literature lessons in secondary schools is the topic of extracurricular reading. Meaningful and effective presentation of lessons on this topic depends on the skill of the literature teacher. The article provides recommendations for conducting extracurricular reading classes in literature lessons in the 6th grade. The names of the works of art for extracurricular reading and their summary are also listed.



<i>Botirova Nigora Nurulla qizi. DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI</i>	881
<i>Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi. ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</i>	887
<i>Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi. ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)</i>	893
<i>Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi. 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR</i>	898
<i>Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi. 5-7-SİNFLAR ADABIYOT DARSLARIDA SHE'RİY ASARLARNING BADIY TİL XUSUSİYATLARİNİ O'RGATİSH METODİKASI: MİRTEMİR VA ANVAR OBİDJON SHE'RLARI MİSOLIDA</i>	903
<i>Nomozova Dilobar Suyun qizi. FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSİON YONDASHUVLAR</i>	908
<i>Qodirova Dilnoza Alisher qizi. ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SİFATIDA</i>	916
<i>Qosimova Munisa Botirjon qizi. KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i>	920
<i>Raxmatova Karima Erkinovna. DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?</i>	925
<i>Saydullayeva Shoira Kaxramon qizi. TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH</i>	930
<i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi. ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI</i>	935
<i>Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH</i>	942
<i>Xolova Sabina Jo'raqulovna. LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKİSTON VA TURKIYA TA'LIM TİZİMİ MISOLIDA)</i>	950
<i>Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna. ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>	953
<i>Xujanova Nilufar Do'smat qizi. GLOBALLASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI</i>	958
<i>Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna. ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI</i>	964
<i>Norqulov Nurzod Saidmurodovich. MUMTOZ NASRIY ASAR TAHLILI YUZASIDAN ZAMONAVIY QARASHLAR</i>	968
<i>Abdullayeva Dildora Shokir qizi. ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARINING BADIY KUCHI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i>	972

